



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 2 (4)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 2-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

2

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Аслонов С.М., Амиджанова М.М. Развитие бизнес-идей (стартапов) предпринимательской деятельности в Республике Таджикистан.....	7
Умаров И.Ю. Современные тенденции инновационного развития пищевой промышленности Узбекистана.....	13
Akbaraliyeva D., Mirzamahmudova M. Bank tizimi tarixi va rivojlanishi.....	16
Mamajonova N.A. Qurilish korxonalarida innovatsion boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari arxitekturasi.....	22
Ahmadkulov D.R., Xamrayev O.Y., Khattobov U.B. Kriptovalyutaga soliq solishda jahon tajirabasi va muammolar.....	25
Toshpulatov A.M. Qurilish materiallari sanoati korxonalarining ishlab chiqarish hajmini baholash usullari.....	30
Bahromov Sh.F. Jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TXXI) iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liqligini tahlili.....	34
Kalmuratov B., Izzetov B., Yusupova J., Shamuratova A. Calculation in econometric models of human capital financing in innovation management in Uzbekistan.....	39
Sultonov B.M. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga ta‘sir etuvchi omillar va ularni baholash asoslari.....	43
Юсупов М.Х. Фарғона вилояти маҳаллаларида ижтимоий омилларнинг иқтисодий барқарорликка таъсири: демография, гендер ва миграция таҳлили.....	47
Жаббаров К.Й., Жалолов И.Х., Эркинов М.Д. Молиявий ҳисобот тизимининг моҳияти ва шаклланиш босқичлари.....	57
Гулямова Н.Х. Саноат корхоналарини инновацион ривожланиши ва миллий иқтисодиёт ўсиши.....	61
Arziboyeva R.S. Banklarda asosiy vositalar va mablag‘lar hisobini takomillashtirish.....	64
To‘raboyev Q.Q. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizda soliq tizimini modernizatsiya qilish va sun‘iy intellekt hamda Big Data yordamida nazorat.....	67
Tojiboyev I.I. Raqamli biznes va elektron tijoratni soliqqa tortishning dolzarb masalalari va yechimlari.....	70
Xolmirzayev I.O. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining rivojlantirishning iqtisodiy yo‘llari.....	74
Saidova M.J. Sanoat tarmoqlari transformatsiyasi sharoitida texnologik eskirish va modernizatsiya muammolari.....	79
Usmonova N.A. Andijon viloyatida kichik korxonalar faoliyat samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillarni statistik va ekonometrik tahlil qilish.....	83
Xaydarov M.T., Jannazarova G.K. Bozor infrastrukturasi va uning rivojlanish istiqbollari.....	87
Худайназарова Д.Г. Фармацевтика корхоналарида харажатларга доир ахборотларни бухгалтерия ҳисоботларида очиб бериш тартибини такомиллаштириш.....	93
Madaminov A.M. O‘zbekistonda sanoat tarmoqlari faoliyatida oziq-ovqat sanoati rivojlantirish istiqbollari.....	99
Zufarova G.A. Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish masalalari.....	103
Ergashev I.I. Kichik korxonalar investitsiyaviy jozibadorligini samarali boshqarishda jahon amaliyoti tajribasi.....	106
Sativaldiyeva G.X. Ijara munosabatlarini mohiyati, ahamiyati va tasniflanishi.....	110
Kamilova A.N. Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda mehnatni normalashtirish tizimining o‘rni va ahamiyati.....	115
Базарова Г.Г. Занятость населения в Узбекистане – теоретико-методологические основы анализа и практические механизмы решения проблем.....	119
Turabov B.T. Byudjet taqchilligi va xalqaro moliyaviy oqimlarning ta‘siri.....	125
Xamzaev A.N. Mamlakatimizda kapital bozorini rivojlantirish yo‘llari.....	131
Xamzaev A.N., Mirzajonov M. Mamlakatimizdagi xususiy korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari.....	136

Raximova L.Sh. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ayollar tadbirkorligining roli va uning turmush farovonligiga ta'siri.....	141
Nosirov S.N. ESG tamoyillarini joriy etish orqali sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish mexanizmlari.....	146
Maxkamov X.M. Tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushini kamaytirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	150
Hamrakulova M.F. Sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv mexanizmlarining mahsulot sifati va bozor raqobatbardoshligiga ta'siri.....	153
Mirzayeva L.S. O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozoridagi aksiyalar likvidligini oshirish yo'llari.....	157
Очилов Ж.Ж. Инновацион ривожланишда кичик бизнес фаолияти экотизимининг роли..	160
Usubjonov Z.V. Qurilish materiallari bozori mohiyati va uning xususiyatlari.....	165
Bekmurodov N.X. Hududiy iqtisodiy rivojlanishning nazariy asoslari va konsepsiyalari.....	170
Yusupova M.B. Zamonaviy boshqaruv tizimi va strategik boshqaruv hisobi.....	175
Xudayberdiyev O.A. Globallashuv sharoitida elektron tijorat orqali tadbirkorlik subyektlarining xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirish mexanizmlari.....	179
Bo'stonova N.A. Andijon viloyatida kichik biznes subyektlarining salohiyatini tahlili.....	187
Bo'stonova N.A., Nematjonova R.D. O'zbekistonda aholining daromadlari va iste'mol xarajatlarining biznes rivojlanishiga ta'siri.....	192
Hamidova Sh.O. Sanoat korxonalarida mehnatni tashkil etish va boshqarish samaradorligi tahlili.	196
Abdullayeva Z.S. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining ijtimoiy va institutsional samaradorligi.	199
Duvshatova N.K. Hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni tartibga solishda investitsion yondashuvlarning samaradorligi.....	203
Усманова А.Б. Цифровая составляющая устойчивого развития региональной туристской системы (на примере Бухарской области).....	207
Qidirniyozov A.Sh. Uy-joy qurilishida kapital qo'yilmalar hajmi va yakuniy natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik modellashtirish.....	213
Dexkanova Sh.K. Aylanma iqtisodiyotning barqaror rivojlanishdagi ro'li.....	217
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. Aholining farovonligini ta'minlashda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning o'rni.....	221
Mamatov B.S. O'zbekistonning investitsion imkoniyatlari: asosiy tendensiya va natijalar.....	226
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish – ular bandligini ta'minlashning asosi.	231
Aminboyev J.O. Amortizatsiya hisobida foydali xizmat muddatini aniqlash: nazariy va amaliy yondashuvlar.....	235
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda kadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	241
Usmanova S.S. Innovative development of the pharmaceutical industry.....	245
Faxriddinova N.N. Yashil tadbirkorlik va uning iqtisodiyotdagi o'rni.....	250
Захирова Г. Тиббий туризм хизматлари бозори ривожланишининг хориж тажрибаси.....	254
Абдуллоев А.Ж. Барқарор ривожланиш стратегияси асосида минтакавий саноатлашувни амалга оширишнинг хорижий мамлакатлар амалиёти.....	258
Sharapova N.K. Hududlarni barqaror rivojlantirish dasturlarini xalqaro standartlar tizimiga moslashtirish imkoniyatlari.....	264
Rahmatullayeva D.O. Demografik omillar va bandlik samaradorligi o'rtasidagi munosabatlar..	272

8. Zeng Y., Li L., Zhang G. Impact of Big Data Products on Entrepreneurial Performance in E-Commerce // Journal of Electronic Commerce Research. – 2025. – Vol. 26, No. 2. – P. 115–128.
9. Chen H., Chiang R. H. L., Storey V. C. Business Intelligence and Analytics: From Big Data to Big Impact // MIS Quarterly. – 2012. – Vol. 36, No. 4. – P. 1165–1188.
10. Kache F., Seuring S. Challenges and Opportunities of Digital Information at the Intersection of Big Data Analytics and Supply Chain Management // International Journal of Operations & Production Management. – 2017. – Vol. 37, No. 1. – P. 10–36.
11. Liu C., Forsythe S. Examining Drivers of Online Purchase Intention: Moderating Role of Adoption Duration in E-Commerce // International Journal of Retail & Distribution Management. – 2011. – Vol. 39, No. 2. – P. 132–146.
12. Gregory G. D., Ngo L. V., Karavdic M. Developing E-Commerce Marketing Capabilities and Efficiencies for Enhanced Performance in Business-to-Business Export Ventures // Industrial Marketing Management. – 2019. – Vol. 78. – P. 146–157.

UDK:338.22

**ANDIJON VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING SALOHİYATINI
TAHLILI**

**АНАЛИЗ ПОТЕНЦИАЛА СУБЪЕКТОВ МАЛОГО БИЗНЕСА В АНДИЖАНСКОЙ
ОБЛАСТИ**

**ANALYSIS OF THE POTENTIAL OF SMALL BUSINESS ENTITIES IN ANDIJAN
REGION**

Bo‘stonova Nilufar Abdusamatovna
Andijon davlat texnika instituti, katta o‘qituvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekistonning aholi zich joylashgan hududlari misolida kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotdagi o‘rni, ularning yalpi ichki mahsulot va hududiy iqtisodiyot rivojiga qo‘shayotgan hissasi hamda 2020–2024 yillardagi asosiy tendensiyalari tahlil qilingan. Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik ulushidagi o‘zgarishlar, mavjud hududiy farqlar va ularning sabablari statistik ma’lumotlar asosida yoritilgan. Xususan, Andijon viloyatining aholi zich shahar va tumanlarida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari orqali kichik biznes subyektlarining faoliyat yo‘nalishlari, resurs yetishmovchiligi, moliyalashtirish manbalari, texnologiyalardan foydalanish darajasi va rivojlanish istiqbollari baholangan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, salohiyat, hududiy rivojlanish, aholi zichligi

В статье проанализирована роль субъектов малого бизнеса в экономике Узбекистана на примере густонаселённых регионов, а также их вклад в валовой внутренний продукт и развитие региональной экономики в 2020–2024 годах. На основе статистических данных исследуются изменения доли малого предпринимательства по регионам, существующие территориальные различия и причины их формирования. Особое внимание уделено результатам социологического опроса, проведённого в густонаселённых городах и районах Андижанской области, который позволил оценить основные направления деятельности малого бизнеса, дефицит ресурсов, источники финансирования, уровень использования технологий и перспективы развития.

Ключевые слова: малый бизнес, потенциал, региональное развитие, плотность населения

This article analyzes the role of small business entities in the economy of Uzbekistan, focusing on densely populated regions, and examines their contribution to gross domestic product and regional economic development over the period 2020–2024. Changes in the share of small entrepreneurship across regions, existing territorial disparities, and their underlying causes are studied based on official statistical data. In particular, the results of a survey conducted in densely populated cities and districts of Andijan region are used to assess the main areas of activity of small businesses, resource constraints, sources of financing, level of technology adoption, and future development prospects.

Keywords: small business, potential, regional development, population density

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va aholi farovonligini oshirishda kichik biznes muhim rol o‘ynaydi. Kichik biznes subektlari hududiy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ular ish o‘rinlarini yaratish, innovatsiyalarni joriy etish va mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda iqtisodiy islohotlar natijasida kichik biznesga bo‘lgan e‘tibor ortib, uning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Aholi zich joylashgan hududlarda, ayniqsa, Toshkent shahri, Farg‘ona vodiysi viloyatlari (Andijon, Farg‘ona, Namangan) va Samarqand, Buxoro kabi yirik shaharlarda kichik biznesning rivojlanishi yuqori bo‘lmoqda. O‘zbekistonda o‘tgan yilning 2024 1-dekabr holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 428 396 tani tashkil etgan. Shundan 424 695 tasi kichik tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelgan [1].

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YaiMdagi ulushi, [2] (%)

klassifikator	2020	2021	2022	2023	2024	2020 yilga nisbatan 2024 da o‘zgarishi (+, -)
O‘zbekiston Respublikasi	57,5	56,9	54,6	54,3	49,6	-7,9
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	62,3	61,4	61,8	64,6	57,9	-4,4
Andijon viloyati	72,7	74,6	69,6	68,6	64,8	-7,9
Buxoro viloyati	76,6	77,1	74,1	72,5	69,7	-6,9
Jizzax viloyati	84,1	81	78,7	75,3	70,6	-13,5
Qashqadaryo viloyati	74,1	71,8	70	70,5	66	-8,1
Navoiy viloyati	27,8	29,2	27,9	28,1	22,6	-5,2
Namangan viloyati	76,3	76,2	74,7	74,3	70	-6,3
Samarqand viloyati	75	74,3	70,8	72,3	70,9	-4,1
Surxondaryo viloyati	78	78,4	77,9	77,4	75,3	-2,7
Sirdaryo viloyat	73	71,2	67,8	65,9	62,1	-10,9
Toshkent viloyati	52	48,2	49,4	52,2	49,6	-2,4
Farg‘ona viloyati	73,3	72,4	71,6	72,2	69,5	-3,8
Xorazm viloyati	77,4	75,8	71,9	72,7	68,5	-8,9
Toshkent shahar	53,6	51,1	51,2	51,7	50,3	-3,3

Ushbu 1-jadval asosida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YaiMdagi ulushi (%) bo‘yicha 2020–2024 yillardagi tendensiyalarni tahlil qilganimizda O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha kichik tadbirkorlikning YaiMdagi ulushi 2020 yildagi 57,5 foizdan 2024 yilda 49,6 foizga kamaygan, bu 7,9 foizlik pasayishni bildiradi. Bu pasayish kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushi qisqarayotganini ko‘rsatadi, bu esa sanoat gigantlari ulushining oshishi yoki kichik subyektlar sonining kamayganidan dalolat beradi.

Hududlar bo‘yicha tahlil qilganimizda Surxondaryo viloyati 2,7 foiz pasayish, 2024 yilda ham yuqori 75,3 foiz. Kichik biznesning salohiyati yuqori darajada saqlanmoqda. Toshkent viloyati pastroq -2,4 foiz, bu esa kichik biznes ulushi barqaror qolganini ko‘rsatadi. Farg‘ona, Samarqand va Toshkent shaharda ham pasayish nisbatan kam bo‘lgan (-3 foiz atrofida).

Keskin pasaygan hududlar Jizzax viloyati -13,5 foiz, eng katta pasayish kuzatilgan. 2020 yilda 84,1 foiz bo‘lgan ulush, 2024 yilda 70,6 foizga tushgan. Sirdaryo viloyati -10,9 foizga pasayish, 2020 yilda 73 foizdan 62,1 foizga. Xorazm va Qashqadaryo viloyatlari – 8,9 foiz va – 8,1 foiz, sezilarli kamayish bo‘lgan.

Kichik biznes ulushi yuqori bo‘lishiga qaramay Andijon viloyati (2024 yilda 64,8 foiz), 2020 yilga nisbatan -7,9 foiz pasaygan.

Tahlil natijalarida xulosa qilganimizda ko‘pgina viloyatlarda kichik tadbirkorlik ulushining kamayishi kuzatilmoqda, bu kichik biznesning iqtisodiyotdagi salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqara olmayotganidan dalolat beradi. Surxondaryo, Toshkent viloyati va Farg‘ona viloyatlari kichik biznesda barqarorlikni saqlagan. Navoiy viloyatida esa juda past ulush saqlanib qolgan, bu esa alohida strategik choralarni talab qiladi. Tahlil asosida hududlararo farqlar mavjudligi ko‘rinib turibdi – bu esa hududiy siyosatni moslashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Hududda kichik biznes subyektlarining salohiyatini o‘rganish, ularning iqtisodiy, moliyaviy, mehnat, innovatsion va tashkiliy imkoniyatlarini baholash hamda rivojlanish istiqbollari belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Hududiy iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyatlari, resurs salohiyati, infratuzilma darajasi va davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan qo‘llab-quvvatlash choralari kichik biznesning samarali faoliyat yuritishiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar hisoblanadi.

Hududiy iqtisodiy salohiyatni baholash uchun kichik biznesning yalpi hududiy mahsulot (YHM)dagi ulushi, ishlab chiqarish hajmi, bandlik darajasi, rentabellik ko‘rsatkichlari va moliyaviy barqarorligi kabi mezonlardan foydalaniladi. Ushbu tahlillar natijasida kichik biznesning hududiy iqtisodiyotga qo‘shayotgan hisyasi, rivojlanish tendensiyalari hamda mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Aholi zich joylashgan hududlarda iqtisodiy salohiyatni oshirish uchun infratuzilmani rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish, davlat qo‘llab-quvvatlash dasturlarini samarali tashkil etish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish muhim hisoblanadi. Shu sababli, hududdagi kichik biznes subyektlarining iqtisodiy salohiyatini baholash ham ilmiy, ham amaliy jihatdan dolzarb masala bo‘lib, tadbirkorlikni yanada rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim rol o‘ynaydi.

2-jadval

Andijon viloyatida aholi zichligini yuqori bo‘lgan 2020- 2024 yil shahar va tumanlarda 1kv.kmga to‘g‘ri keladigan aholi soni, kishi [3]

Shahar va tumanlar	yillar				
	2020	2021	2022	2023	2024
Andijon shahri	6748,7	6875,5	6550	7152	7346,1
Xonobod shahri	1831,1	1861,3	2195	1938,8	1973,3
Asaka tumani	1212,1	1237,4	1259,3	1292,8	1320,7
Shahrixon	1032,7	1053,5	1069	1100,4	1125,3

Andijon viloyati O‘zbekistonning eng zich aholi yashaydigan hududlaridan biri bo‘lib, bu omil kichik biznes subyektlari salohiyatini baholashda muhim rol o‘ynaydi. Viloyatda aholi sonining yuqoriligi, mehnat resurslarining ko‘pligi, iste’mol bozorining kengligi va xizmatlarga bo‘lgan doimiy talab kichik biznesni rivojlantirish uchun tabiiy sharoit yaratadi.


Mehnat resurslari salohiyati yuqoriligi, aholining katta qismi yoshlar bo‘lgani uchun yangi g‘oya, innovatsion yondashuv va mehnatga tayyor kuch mavjud. Bu kichik korxonalar uchun kadr tanlash va ishlab chiqarishni kengaytirishda ustunlik beradi.

Biroq, aholining zich joylashuvi ba’zi muammolarni ham yuzaga chiqaradi. Jumladan, infratuzilmaning ortiqcha yuklanishi, ekologik muammolar, yer va resurslardan foydalanishda cheklovlar. Shu sababli kichik biznesni rivojlantirishda ekologik toza ishlab chiqarish, raqamli xizmatlar va yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlarga e’tibor qaratish zarur.

Andijon viloyatida aholi zich hududlarning mavjudligi kichik biznes subyektlari salohiyatini oshiruvchi muhim omil bo‘lsada, resurslardan samarali foydalanish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish ularning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Tadqiqotimiz davomida Andijon viloyatining aholi zich joylashgan hududlari Andijon va Xonobod shaharlari va Asaka va Shahrixon tumanlarida so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnomadani maqsad kichik biznesni rivojlantirishga doir bo‘lgan muammolarni aniqlash va ularga ilmiy yechim berish maqsad qilib qo‘yilgan. So‘rovnomaning birinchi savoli boyicha tahlil qilganimizda, kichik biznesni qaysi soha boyicha faoliyat yuritishini foizlarda ko‘rib chiqsak, yuqori ko‘rsatkich xizmat ko‘rsatish 31,3 foiz va 25,4 foiz boshqa sohalarga to‘g‘ri kelyapti.

Ikkinchi savolga ya’ni qo‘l ostidagi xodimlar soniga 1-5 taga 60,6 foiz yuqori ko‘rsatkichni va 20 dan ortiq xodimlar bilan faoliyat ko‘rsatuvchi kichik biznes subyektlari 22,7 foizni tashkil qilyapti.



1-rasm. Andijon viloyati aholi zich hududlari Andijon, Xonobod shaharlari va Asaka, Shahrixon tumanlarida kichik biznes va tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olingan so‘rovnoma natijalari

Kichik biznes subyektlari faoliyatini boshlash va kengaytirish moliyaviy mablag‘ga borib taqaladi. Shuni inobatga olib so‘rovnomada biznes faoliyatini boshlash uchun moliyaviy manbangiz nima deb savol berdik? Javoblardan kelib chiqib, shaxsiy jamg‘arma 50,7 foizni va 22,4 foiz kredit va qarzni, davlat dasturi esa 9 foiz ko‘rsatkichni bermoqda.

Kichik biznes subyektlari faoliyatini ochish va yuritishda davlat yoki xususiy sektor tomonidan qanday yordam kerakligini tahlil qilganimizda 47,3 foiz soliq imtiyozlari 34,3 foiz kreditni yengillashtirish javoblari yuqori ko‘rsatkichni berdi.

Mahsulot yoki xizmat sifatini oshirish uchun kichik biznes subyektlari faoliyatida 38,2 foiz kadrlar malakasini oshirish va 31,3 foiz yangi texnologiyalar joriy qilish choralari ekanligini o‘z javoblarida bildirgan.

O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari kichik biznes subyektlari faoliyatining ko‘lami, ularning duch kelayotgan muammolari va istiqboldagi rejalar haqida muhim ma’lumotlarni taqdim etdi.

Tahlillarga ko‘ra, kichik biznes eng ko‘p xizmat ko‘rsatish (31,3 foiz) va boshqa (25,4 foiz) sohalarda faoliyat yuritmoqda. Xodimlar soni bo‘yicha esa asosan 1-5 nafar ishchiga ega bo‘lgan subyektlar (60,6 foiz) ustunlik qiladi, bu esa ularning mikro biznes ko‘rinishida ekanini anglatadi.

Texnologiyadan foydalanish bo‘yicha sezilarli ijobiy holat kuzatilmoqda — respondentlarning 80,3 foizi doimiy ravishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanmoqda. Kelgusidagi rejalar esa mahsulot va xizmat hajmini oshirish (46,3 foiz) va yangi bozorlarni o‘zlashtirish (25,4 foiz) yo‘nalishlarida jamlangan.

Davlat yoki xususiy sektor tomonidan kutilayotgan yordamlar ichida soliq imtiyozlari (47,3 foiz) va kredit shartlarini yengillashtirish (34,3 foiz) yetakchi talablar sifatida ajralib turibdi. Mahsulot yoki xizmat sifatini oshirishda esa asosiy choralar kadrlar malakasini oshirish (38,2 foiz) va yangi texnologiyalarni joriy etish (31,3 foiz) deb ko‘rsatilgan.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, aholi zich joylashgan hududlarda kichik biznesning rivojlanishi salmoqli iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega. Aholi sonining ko‘pligi talabning yuqoriligi va mehnat resurslarining mavjudligi bilan birga, xizmat ko‘rsatish va ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni. Toshkent, 2020.
2. S.S. G‘ulomov, B.Yu. Xodiyev. “Kichik biznesni rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti”. Toshkent: Fan, 2019.
3. <https://oz.sputniknews.uz/20240109/ozbekiston-hudud-kichik-tadbirkorlik-41980726.html>
4. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. “O‘zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik faoliyati bo‘yicha yillik statistika”, 2020–2024.